



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



TEACHER'S SPEECH CULTURE

Sattorova Sevinch¹

Samarkand Branch of Tashkent International University of Kimyo

KEYWORDS

speech, language,
pronunciation, speech
technique, moving sentences,
excerpts, dialogue, monologue

ABSTRACT

In this article, the primary education teacher's thoughts on the culture of speech, his speech during class, the laws and regulations that he must teach to students, the requirements for the teacher's speech, the opinions of our scholars on speech and language, speech etiquette in the hadiths thoughts about are covered.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7527884

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student, Samarkand Branch of Tashkent International University of Kimyo, Uzbekistan

O'QITUVCHINING NUTQ MADANIYATI

KALIT SO'ZLAR:

Nutq, til, jarangdorlik nutq texnikasi, ko'chma gaplar, ko'chirmalar, dialog, monolog

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nutq madaniyati xaqida fikrlar, dars vaqtidagi nutqi, o'quvchilarga o'rgatishi zarur bo'lgan qonun qoidalar o'qituvchi nutqiga qo'ygan talablar, Olimlarimizning nutq va til xaqidagi fikrlari, Hadislarda kelgan nutq odobi haqida fikrlar yoritilgan.

Ushbu fanni chuqur o'zlashtirish lozim. Ona tili, falsafa, tarix, etnografiya, Adabiyot, tilshunoslik fanlardan xabardor bo'lish kerak.

Tilning rivojlanish tarixi, millat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Tilning lug'at boyligida yuz beradigan o'zgarishlar jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o'garishlar asosida amalga osharadi.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab Grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalgam oshiriladi. (monologik, diologik nutq).

Yozma nutq esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyatlari asosida o'zaro birikuv, tinish belgilari, har xil ajratishlar, abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro'yobga chiqadi.

Ma'lum bir til tarixida amal qilgan, hozir mavjud bo'lgan va paydo bo'lishi ko'zda tutilgan hodisalarning jami o'sha til tizimini tashkil etadi. Har bir til sistemasi o'zigagina xos bo'lgan tomonlari bilan boshqa tillardan farqlanib turadi. Masalan, o'zbek tili turkey tillar oilasiga kiradi.

Sistema o'zaro ichki ziddiyatga ega bo'lgan hodisalarning guruhlanishiga aytiladi. Til sistemalar sistemasi sanaladi.

Biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi uzus deyiladi.

Bu fanni o'rganish jarayonida olingan bilim ko'nikma va malakalar o'qituvchi va bolalar nutqini rivojlantirish tilshunoslikka kirish, umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslikka kirish, folklore – xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, filologiya, fiziologiya fanlarni o'zlashtirish uchun zarurdir.

Mustaqil respublikamizda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy o'zgarishlar xalq ta'limi tizimida ham o'z aksini topmoqda. O'zbekistonda uzluksiz

ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, shu asosda ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish ta'lim sistemasining eng dolzarb vazifasiga aylandi. Bu esa, barcha mutaxassisliklar qatori boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishni ham taqozo etadi.

Mazkur dastur boshlang'ich ta'lim bakalavr yo'nalishi uchun qabul qilingan davlat ta'lim standarti asosida tuzildi. Ushbu fan o'z amaliy ahamiyati bilan boshlang'ich sinf tarbiyachilari faoliyatida juda kata ahamiyatga ega.

O'zbek tilidagi mavjud grammatik shakl va kategoriyalarning adabiy me'yorlashganlarini nutq maqsadiga muvofiq tanlash asosida to'g'ri nutq tuzish nutq madaniyati uchun asosiy jihatdir.

Nutq madaniyati fonetika va orfoepiya bilan ham chambarchas bog'liq. Orfoepiya tovushlarning talaffuz xususiyatlarini o'rganadi, adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab beradi. Nutqning to'g'riligini baholashda bu me'yorlar ham asos ekan, o'z-o'zidan nutq madaniyatining orfoepiya bilan bog'liqligi anglashiladi. Fonetika tilning butun tovush sistemasi, uning qonuniyatlari, urg'u, intonatsiya, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko'plab masalalarni o'rganadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda mavjud bo'lsa-da, aslida yozma shakl ham "ichki" og'zaki nutq shaklida tuziladi va idrok etiladi. Tabiiyki, yozma nutqda og'zaki nutqdagi juda ko'plab fonetik-intonatsion xususiyatlar aks etmaydi (albatta, punktuatsiya ularning barini aslo ifodalay olmaydi).

O'qituvchi nutq madaniyati fani talablarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fanning asosiy maqsadi – Talabalarni boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutqining rivojlanishi mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

O'quvchiarni turli mavzuda suhbat o'tkazishishga, qayta hikoyalash va hikoya qilishga, bayon va ishno, ifodali o'qish, ijodiy ishlar, diktantlar, til materialini tahlil qilish kabi mashg'ulotlarga tayyorlash va uni o'tkazishish, ko'rgazma va texnik vositalardan foydalanib, o'quvchilarning bilish faoliyatini va mustaqilligini ta'minlashga o'rgatish.

Talabalarning o'qituvchi sifatida takomil topishida o'qituvchining o'rnini hech qaysi vosita bosa olmaydi. Ayniqsa, talabalarning nutqiy malakalarini shakllantirishda, dunyoni anglatishda o'qituvchi nutqining ham o'ziga xos o'rni mavjud.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Ta'lim to'g'risidagi qonun talablari asosida bakalavr tayyorlash tizimini tubdan yaxshilashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Shunga ko'ra o'qituvchi nutqi madaniyati kursi oliy o'quv yurtlari dasturiga kiritildi.

Adabiy til – hamma birdek foydalanadigan til. Uning umumxalqiyligi shunda ko'rinadi. Me'yor ma'lum bir til jamoasi uchun mustahkam qo'llanib kelayotgan lisoniy hodisalar yig'indisidir.

1. Fonetik me'yori.

2. Talaffuz me'yor.
3. So'z yasash me'yor.
4. Morfologik me'yor.
5. Sintaktik me'yor.
6. Uslubiy me'yor.
7. Lug'viy me'yor.

Til me'yorining fonetika, grammatika va boshqalarda bir variantni tanlash qandaydir darajada qat'iy bo'lsa ham, lug'aviy me'yorlar haqida gap ketganda voz kechish kerak deb bo'lmaydi.

Tilning lug'aviy boyligidan foydalanganda me'yorning imkoniyati muallifga takroni, bir xillikni yengishda chiroyli nutq tuzishda qo'l keladi. Nutqning to'g'riligi uning adabiy me'yorlariga mosligidir. Nutq o'zida adabiy tilning fonetik talaffuz, lug'aviy so'z yasalishi Grammatik uslubiy me'yorlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Nutqning to'g'riligi uning eng aloqaviy fazilatidir.

Mavzuga doir asosiy tayanch so'zlar, terminlar va iboralar:

Jamiyat, til, tafakkur, ong, nutq, muomala, madaniyat, til madaniyati, nutq madaniyati, o'qituvchining nutq madaniyati, fanlararo aloqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, dialektologiya, frazeologiya, mantiq, psixologiya, fiziologiya, etika, estetika, notiqlik san'ati, tarix, falsafa, fonetika, morfologiya, sintaksis, grammatika, orfografiya, orfoepiya, stilistika, xalq zukkoligi, latifa, askiya, badiiy asar, ilmiy asar, publitsistika, she'r, hikoya, ifodali o'qish, imlo qoidalari, tinish belgilari, ohang, urg'u.

Adabiyotlar:

1. S.Inomho'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. T., —O'qituvchi||, 1978.
2. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 1993.
3. Bahrombek Abdujalil o'g'li. Badiiy o'qish sirlari. Andijon, 1994 y
4. N.Bekmirzayev Notiqlik san'ati asoslari. Toshkent yangi nashr 2008y
5. Tuzuvchi: k.o'qituvchi Hamidov Abdumalik Termiz – 2013 y.